BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ULUGOVA SHOXIDA SHOXRUXOVNA

METAFORIK TUZILMALARNING KONSEPTUALLASHUVI VA MATNDA FAOLLASHUVINING PRAGMATIK-DISKURSIV JIHATLARI (ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 81’373.612.2(=1/=8)

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological sciences

Ulugova Shoxida Shoxruxovna
Metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi va matnda faollashuvining pragmatik-diskursiv jihatlari (ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida)..... 3

Ulugova Shokhida Shokhrukhovna
Pragmatic-discursive aspects of conceptualization and actualization of metaphorical structures in the text (based on materials from English, Spanish, and Uzbek languages) 33

Улугова Шохида Шохруховна
Прагматико-дискурсивные аспекты концептуализации и актуализации метафорических структур в тексте (на материале английского, испанского и узбекского языков)..... 63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 69

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ULUGOVA SHOXIDA SHOXRUXOVNA

METAFORIK TUZILMALARNING KONSEPTUALLASHUVI VA MATNDA FAOLLASHUVINING PRAGMATIK-DISKURSIV JIHATLARI (ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.DSc/Fil769 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Safarov Shaxriyor Safarovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xursanov Nurislom Iskandarovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Siddikova Iroda Abduzugurovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «3» dekabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «19» noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil «19» noyabr dagi 47 - raqamli reestr bayonnomasi.)

B.E. Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y. Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I. Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahon tilshunosligida metaforik tuzilmalarning matn va diskursda qo‘llanishi, ularning mazmunni ifodalash hamda kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, inson ongida shakllangan bilimlarning til vositasida ifodalanishi, metaforik tuzilmalarning turli kommunikativ vaziyatlarda faollashuvi hamda ularning mazmuniy va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ingliz, ispan va o‘zbek tillarida metaforalarning konseptual asoslarini aniqlash, matn va diskursdagi vazifalarini ochib berish, shuningdek, ularni tarjima qilish jarayonida mazmuniy hamda pragmatik xususiyatlarini saqlash bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda, chunki metaforik tuzilmalarning kontekstual ma’nolarini to‘g‘ri talqin qilish va tillararo o‘xshashlik hamda farqlarini aniqlash tilshunoslik va tarjima amaliyoti uchun dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, turli madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi muloqotning kengayishi sharoitida metaforik tuzilmalarning konseptual, semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning universal hamda milliy-madaniy jihatlarini qiyosiy o‘rganish va tarjimada adekvat ifodalash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasida metaforalarning inson tafakkuri va olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi o‘rni, matn va diskursda konseptuallashuvi, kontekst ta’sirida faollashuvi hamda kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi vazifalarini tadqiq etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz, ispan va o‘zbek tillaridagi metaforik tuzilmalarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning milliy-madaniy mazmuni va pragmatik ta’sirini ochib berish, shuningdek, tarjima jarayonida konseptual mazmun hamda kommunikativ ta’sirning saqlanish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarini takomillashtirish hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda “fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy ishlarni rivojlantirish bilan birga ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini barpo etish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish” vazifasiga alohida urg‘u berilgan1. Ayniqsa, metaforik tuzilmalarning konseptual asoslarini aniqlash, ularning matn va diskursda faollashuv mexanizmlarini ochib berish hamda ingliz, ispan va o‘zbek tillaridagi semantik, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, metaforik birliklarning milliy-madaniy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. https://nrm.uz/contentf?doc=602358_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

mazmunini aniqlash, kontekstga bog‘liq ma’nolarini talqin qilish, kommunikativ vazifalarini belgilash va tarjimada ularning mazmuniy-pragmatik xususiyatlarini saqlashga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirish muhim amaliy vazifa hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar til va madaniyat munosabatlarini chuqurroq anglash, tillararo muloqot samaradorligini oshirish hamda metaforik birliklarni tarjima qilish va o‘qitish amaliyotini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-fevraldagi 75-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularning amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Jahonning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlarida metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi, matn va diskursda faollashuvi hamda ularning semantik, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, AQShdagi Chikago universiteti va Kentukki universitetida konseptual metafora, til va tafakkur munosabatlari hamda metaforik birliklarning ma’no shakllanishidagi o‘rniga doir masalalar, Buyuk Britaniyadagi Kembrij universitetida kognitiv tilshunoslik va tilning ma’no hosil qilish imkoniyatlari, Germaniyadagi Mannheim nemis tili instituti va Ispaniyadagi La Rioja

[2] **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi**: www.cheloveknauka.com, www.iling.iling-ran.ru, www.phraseoseminar.slovo-spb.ru, www.new-disser.ru, www.researchgate.net, www.ncsociology.org, www.inlibrary.uz, www.human.snauka.ru, www.academia.edu, www.cyberleninka.ru, www.hse.ru, www.core.ac.uk, www.uza.uz, www.webofjournals.com.

universitetida esa til birliklarining qo‘llanishi, frazeologik xususiyatlari hamda tarjima masalalari bilan bog‘liq yo‘nalishlar o‘rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlar metaforik tuzilmalarning faqat alohida so‘z va birikmalar doirasidagi ma’nosini emas, balki ularning matn mazmunini shakllantirish, kommunikativ maqsadni ifodalash va muayyan diskursda talqin qilinish xususiyatlarini ham tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahon universitetlarida olib borilayotgan izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri metaforik tuzilmalarning konseptual asoslari bilan ularning matn va diskursdagi pragmatik vazifalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlashdan iborat. Xususan, Chikago universiteti va Kentukki universiteti bilan bog‘liq kognitiv-lingvistik tadqiqotlarda metaforik tushunchalarning shakllanishi va olam haqidagi tasavvurlarni ifodalash masalalari, Kembrij universitetida til, ma’no va tafakkur munosabatlari, Mannheim nemis tili institutida esa real til materiallari va til birliklarining qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan, metaforik tuzilmalarning kontekstga bog‘liq ravishda faollashuvi, ularning milliy-madaniy mazmuni va kommunikativ ta’siri hamda tarjimada konseptual mazmunning saqlanishini ingliz, ispan va o‘zbek tillari misolida o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish mazkur mavzuning istiqbolli jihatini tashkil etadi.

Xorijiy universitetlarda shakllangan nazariy va metodologik yondashuvlarni hisobga olgan holda, metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi va matnda faollashuviga oid tadqiqotlarni olti ustuvor yo‘nalishda umumlashtirish mumkin: birinchidan, Chikago universiteti va Kentukki universitetida rivojlangan kognitiv-lingvistik yondashuvlar bilan bog‘liq holda metaforik tuzilmalarning konseptual asoslari va ma’no shakllanish mexanizmlarini aniqlash; ikkinchidan, Kembrij universitetida o‘rganiladigan til, ma’no va tafakkur munosabatlari doirasida metaforalarning matn mazmunini shakllantirishdagi rolini tavsiflash; uchinchidan, Mannheim nemis tili instituti kabi markazlarda qo‘llanadigan til materiallarini tahlil qilish yondashuvlari asosida metaforik birliklarning kontekstual faollashuvini o‘rganish; to‘rtinchidan, turli mamlakatlar universitetlarida rivojlantirilayotgan lingvokulturologik yondashuvlar asosida metaforalarning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyoslash; beshinchidan, metaforik tuzilmalarning pragmatik vazifalari va turli diskurslardagi kommunikativ ta’sirini aniqlash; oltinchidan, tarjimashunoslik doirasida metaforik birliklarning tillararo muqobilligi va pragmatik xususiyatlarini saqlash masalalarini o‘rganish. Ushbu yo‘nalishlarni ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida kompleks tadqiq etish metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi hamda matnda faollashuvining pragmatik-diskursiv xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida metafora hodisasining lingvistik, kognitiv, pragmatik va diskursiv jihatlari tadqiq etilgan. J. Lakoff, M. Jonson, Z. Kovech, L. Kameron, D. Devidson, Z. Meison, E. Semino, I. Vastermark, J. Zinken, A. Masolf, J.R. Serl, N.D. Arutyunova, A.N. Baranov, S.S. Gusev, V.N. Telia, N.D. Bessarabova, I.A. Kemayeva, S.A. Xaxalova3 kabi

[3] Lakoff G., & Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago and London: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.; Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. 2nd edition. – P. 202-251; Johnson M. The body in mind: The bodily basis of meaning,

olimlar metafora nazariyasi, uning semantik va kognitiv xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham jahon tilshunosligida yuz berayotgan ilmiy-metodologik o‘zgarishlar ta’sirida yangi yondashuvlar shakllandi va til tizimini tadqiq etish jarayonida metafora hodisasiga nisbatan ham yangicha ilmiy tavsiflar berildi. Xususan, M. Mirtojiev, D.U. Ashurova, Sh.S. Safarov, O. Karimov, D. Xudayberganova, G. Nasrullayeva, G. Narbayeva, Sh. Maxmaraimova, D.A. Rustamova, I.A. Siddikova, G. Qobuljonova, U.S. Qobulova4 va boshqa olimlarning nazariy qarashlari mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning yaqqol namunasidir.

Biroq, ingliz, ispan va o‘zbek tillarida metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi va matndagi faollashuvini pragmatik-diskursiv jihatdan chog‘ishtirma tahlil qiluvchi monografik tadqiqotlar hali yetarli emas. Aksariyat ishlarda metafora faqat semantik vosita sifatida o‘rganilgan, uning matndagi diskursiv roli va kognitiv vazifalari yetarlicha tahlil qilinmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot bu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

---

imagination, and reaction. – Chicago: University of Chicago, 1987. – 272 p.; Kövecses Z. Metaphor and emotion: Language, culture, and body in human feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 244 p.; Kövecses Z. Metaphor in culture. Universality and variation. – Cambridge: CUP, 2005. – 336 p.; Kövecses Z. Metaphor: A practical introduction. – Oxford and New York: Oxford University Press, 2010. – 375 p.; Cameron L. Metaphor in educational discourse. – London: Equinox, 2003.; Davidson D. What metaphors mean // On metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1979. – P. 29-46; Mason Z. CorMet: A computational, corpus-based conventional metaphor extraction system // Computational Linguistics. 2004. Vol. 30. – Pp. 23-44; Серль Дж.Р. Метафора // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 307-341; Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – Москва, 1990. – С. 5-32; Баранов А.Н. О типах сочетаемости метафорических моделей // Вопросы языкознания. 2003. №2. – С. 73-79; Гусев С.С. Наука и метафора. – Ленинград: ЛГУ, 1984. – 152 с.; Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – Москва: Наука, 1981. – С. 109-120; Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и ее экспрессивно-¬оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – Москва: Наука, 1988. – С. 26-52; Бессарабова Н.Д. Изобразительные и выразительные возможности метафор в газетно-публицистической речи. Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 1985. – 225 с.; Кемаева И.А. Метафорические концепты в языке английской и американской поэзии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – 192 с.; Хахалова С.А. Метафора в аспектах языка, мышления и культуры: монография. 2-е изд., испр. и доп. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – 292 с.

[4] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2010. – 100 б.; Ашурова Д.У. Стилистика в парадигме когнитивно-дискурсивной теории языка. – Ташкент: Magic Print Asia, 2025. – 212 с.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Каримов О. Абдулла Орипов шеъриятида метафорик образлар. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 128 б.; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. –135 б.; Насруллаева Г. Метафора – оламнинг лисоний ифодаси. – Қарши, 2021. – 102 б.; Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лингвомаданий, коммуникатив, прагматик аспекти. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) дисс... автореф. – Қарши, 2018. – 25 б.; Насруллаева Г. Антропоморфик метафоранинг социолингвистик хусусиятлари ва лексикографик тадқиқи масалалари. Фил. фан. д-ри дисс... автореф. – Фарғона. 2022. – 58 б.; Нарбаева Г.Х. Роль концептуальных метафор во фразеологической картине мира (на материале испанского и русского языков). Дисс.… док. филос. по филол. наук. – Ташкент, 2024 – 141 с.; Махмараҳимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Филол. фан. номз. дисс.... – Тошкент, 2018. – 161 б.; Маҳмараҳимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект). Филол. фан. док. (DSc) дисс... автореф. – Самарқанд, 2020. – 62 б.; Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари. Филология фанлари бўйича PhD дисс... автореф. – Фарғона, 2018. – 26 б.; Сиддикова И.А. Синонимия языка и её кодификационные основы. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 2012 – 58с.; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент; 2000. – 22 б.; Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Фил. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 140 б.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Diskursiv faoliyatning kognitiv-pragmatik tahlili" mavzusidagi ilmiy yo`nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, ispan va o'zbek tillarida metaforik tuzilmalarning konseptual asoslarini aniqlash, ularning matndagi faollashuvini hamda pragmatik-diskursiv jihatlarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

metafora hodisasini kognitiv, pragmatik va diskursiv yondashuvlar asosida kompleks tadqiq etish;

ingliz, ispan va o'zbek tillarida metaforik tuzilmalarning konseptual modellari va universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash;

turli diskurs turlarida metaforaning faollashuv mexanizmlarini ochib berish;

siyosiy va badiiy diskurslarda konseptual metaforaning kognitiv-pragmatik va funksional ta'sir mexanizmlarini tadqiq etish;

metafora va ramz o'rtasidagi semantik va pragmatik farqlarni tizimlashtirish, ularning matnda faollashuv imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda natijalarni lingvistik, kognitiv va madaniy nuqtai nazardan umumlashtirish.

Tadqiqotning obyektini ingliz, ispan va o'zbek tillarida ishlatiladigan metaforik tuzilmalar va ularning matnlardagi faollashuvi hamda pragmatik-diskursiv jihatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini ingliz, ispan va o'zbek tillaridagi metaforik tuzilmalarning konseptual asoslari, ularning matndagi faollashuvi va pragmatik-diskursiv jihatlari, shuningdek, ushbu jarayondagi lingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda chog'ishtirma, komponentli, struktur-semantik, kontekstual va lingvomadaniy tahlil metodlari, shuningdek, lingvokognitiv hamda lingvostilistik yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

metafora hodisasining kognitiv, pragmatik va diskursiv xususiyatlari o'zaro bog'liqlikda tadqiq etilib, metaforik tuzilmalarning konseptual asoslari, ularning muayyan matn va diskurs sharoitida faollashuv xususiyatlari hamda ushbu jarayonning pragmatik-diskursiv jihatlari aniqlangan;

metaforik tuzilmalarning konseptual modellari ingliz, ispan va o'zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilinib, ularda namoyon bo'luvchi umumiy kognitiv xususiyatlar hamda olamning milliy-madaniy idrok etilishi, madaniy qadriyatlar va assotsiatsiyalar bilan bog'liq o'ziga xosliklar aniqlangan;

ilmiy-texnik, siyosiy va publitsistik diskurslarda metaforik tuzilmalarning faollashuv xususiyatlari qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilinib, ularning pragmatik vazifalari murakkab tushuncha va jarayonlarni izohlash, voqea-hodisalarga baho berish hamda adresatning idroki va munosabatiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ko'ra tasniflangan;

siyosiy diskursda konseptual metaforaning kognitiv-pragmatik ta’sir xususiyatlari ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etilib, uning adresatning voqelikni idrok etishi, hodisalarga munosabati va ularni baholashiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan pragmatik salohiyati aniqlangan;

badiiy diskursda metaforaning funksional va kognitiv xususiyatlari obraz–ramz–belgi semiotik ierarxiyasi doirasida yoritilib, uning badiiy obrazlarni konseptual jihatdan shakllantirish, asar mazmunining ramziy qatlamini yuzaga chiqarish hamda muallif g‘oyasini bilvosita ifodalashdagi vazifalari aniqlashtirilgan;

metafora va ramzning semantik-pragmatik xususiyatlari kognitiv-diskursiv yondashuv asosida qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etilib, ularning matnda faollashuv mexanizmlari hamda mazmunni shakllantirish va talqin qilish imkoniyatlaridagi farqlar tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

metaforik tuzilmalarning konseptual modellari va matnda faollashuv xususiyatlariga oid nazariy qarashlar umumlashtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik yondashuv ishlab chiqilgan;

ingliz, ispan va o‘zbek tillaridagi metaforik tuzilmalarning konseptual, semantik va pragmatik xususiyatlariga oid faktik materiallar tizimlashtirilib, ulardan qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik va matn tahliliga oid tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari belgilangan;

metaforik tuzilmalarning turli diskurslarda faollashuvi, kommunikativ vazifalari va milliy-madaniy xususiyatlariga oid natijalar asosida tilshunoslik, lingvokulturologiya, matn pragmatikasi va kognitiv tilshunoslik fanlari bo‘yicha ma’ruza, seminar hamda amaliy mashg‘ulotlar mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi materiallar tayyorlangan;

tadqiqot natijalaridan ingliz, ispan va o‘zbek tillaridagi metaforik birliklarni tarjima qilish, ularning kontekstual ma’nosini izohlash hamda pragmatik xususiyatlarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan o‘quv qo‘llanmalari va metodik materiallarni ishlab chiqishda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va metodi bilan uyg‘unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbiqida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz, ispan va o‘zbek tillaridagi metaforik tuzilmalarning konseptual asoslari, lingvokognitiv, semantik, pragmatik va milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish, ularning matn va diskursda faollashuv mexanizmlarini aniqlash hamda metaforik mazmunning shakllanishi va talqiniga oid nazariy qarashlarni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosa va tahliliy materiallardan oliy ta’lim muassasalarining filologiya yo‘nalishlarida kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, semantika, stilistika va tarjima nazariyasi fanlarini o‘qitishda, maxsus kurslar va seminarlar tashkil etishda, shuningdek, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari hamda metodik materiallar tayyorlashda, metaforik birliklarning ma’nosini izohlash, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish va tarjimada muqobil ifoda vositalarini aniqlashga mo‘ljallangan lingvistik lug‘atlar hamda ma’lumotnomalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi va matnda faollashuvining pragmatik-diskursiv jihatlarini aniqlashga doir tadqiqot natijalari asosida:

metafora hodisasining kognitiv, pragmatik va diskursiv xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etilib, metaforik tuzilmalarning konseptual asoslari, ularning muayyan matn va diskurs sharoitida faollashuv xususiyatlari hamda ushbu jarayonning pragmatik-diskursiv jihatlari aniqlanganligiga oid dissertatsiya xulosalaridan O‘zbekiston Milliy universitetida 2022–2024-yillar davomida amalga oshirilgan REP-25112021/113-sonli “UzUDT: O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog‘liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 24-avgustdagi 04/11-22067-son ma’lumotnomasi). Natijada, metaforik birliklarning konseptual mazmunini aniqlash, ularning matn tarkibidagi semantik xususiyatlarini belgilash hamda matn va diskurs doirasida voqelanish qonuniyatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq vazifalarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash imkoniga erishilgan;

metaforik tuzilmalarning konseptual modellari ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qilinib, ularda namoyon bo‘luvchi umumiy kognitiv xususiyatlar hamda olamning milliy-madaniy idrok etilishi, madaniy qadriyatlar va assotsiatsiyalar bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar aniqlanganligiga qaratilgan ilmiy xulosalardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan Erasmus+ dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP “University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC)” grant loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 11-fevraldagi 04/11-5383-son ma’lumotnomasi). Loyiha doirasida mazkur qiyosiy tadqiqot natijalari turli tillardagi metaforik birliklarning umumiy va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyoslash, ular asosida metaforaning konseptual mazmunini tizimlashtirish hamda ilg‘or ilmiy yondashuvlarni o‘zbek tilshunosligi tadqiqotlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilgan;

ilmiy-texnik, siyosiy va publitsistik diskurslarda metaforik tuzilmalarning faollashuv xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qilinib, ularning pragmatik vazifalari murakkab tushuncha va jarayonlarni izohlash, voqea-hodisalarga baho berish hamda adresatning idroki va munosabatiga ta’sir ko‘rsatish xususiyatlariga ko‘ra tasniflanganligi haqidagi dissertatsiya natijalaridan Samarqand viloyati teleradiokanalida 2026-yil 3-fevral kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!”

eshittirishining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2026-yil 4-martdagi 01-07/67-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv mazmunini shakllantirish, mavzuga oid axborotni obrazli va ta’sirchan tarzda yetkazish hamda tinglovchiga yo‘naltirilgan kommunikativ mazmunni aniq ifodalashga erishilgan;

siyosiy diskursda konseptual metaforaning kognitiv-pragmatik ta’sir xususiyatlari ingliz, ispan va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etilib, uning adresatning voqelikni idrok etishi, hodisalarga munosabati va ularni baholashiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan pragmatik salohiyati aniqlangani bo‘yicha olingan xulosalardan Ispaniyaning Kadiz Universitetida tahsil olayotgan talabalarni matndagi metaforik tuzilmalarni tahlil qilish va konseptual metaforalarni talqin qilishga undash strategiyasini aniqlash maqsadida foydalanilgan (Kadiz Universiteti xalqaro aloqalar va uzluksiz ta’lim Departamentining 2026-yil 30-apreldagi ma’lumotnomasi). Natijada, matndagi metaforik tuzilmalarni tahlil qilishning pragmatik-diskursiv modeli va badiiy matnlarda konseptual metaforalarni talqin qilishning metodologik yondashuvlari yaratilishiga erishilgan;

badiiy diskursda metaforaning funksional va kognitiv xususiyatlari obraz–ramz–belgi semiotik ierarxiyasi doirasida yoritilib, uning badiiy obrazlarni konseptual jihatdan shakllantirish, asar mazmunining ramziy qatlamini yuzaga chiqarish hamda muallif g‘oyasini bilvosita ifodalashdagi vazifalari aniqlashtirilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Ispaniyaning Sevilya Universiteti ta’lim jarayoniga joriy etishda foydalanilgan (Sevilya Universitetining 2026-yil 8-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, badiiy matnlardagi metaforik tuzilmalarni tahlil qilishning pragmatik-diskursiv modeli hamda konseptual metaforalarni talqin qilishning metodologik yondashuvlari amaliyotga tatbiq etilishiga erishilgan;

metafora va ramzning semantik-pragmatik xususiyatlari kognitiv-diskursiv yondashuv asosida qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etilib, ularning matnda faollashuv mexanizmlari hamda mazmunni shakllantirish va talqin qilish imkoniyatlaridagi farqlar tizimlashtirilganligi haqidagi xulosalardan Malaziyaning Pendidikan Sultan Idris Universitetining “A Framework of Teachers’ Digital and Artificial Intelligence Competencies Upskilling for Industry 4.0 and Industry 5.0” loyihasi doirasida foydalanilgan (Pendidikan Sultan Idris Universitetining 2025-yil 28-maydagi ma’lumotnomasi). Natijada, siyosiy diskursdagi konseptual metaforalar orqali adresatning tafakkuri va qaror qabul qilish jarayoniga kognitiv-pragmatik ta’sir mexanizmi aniqlangan, shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli va sun’iy intellekt kompetentsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ushbu tahlilning ilmiy asos sifatida qo‘llanilishi ta’minlanib, metaforik ifodalarning o‘quv jarayonida va siyosiy matnni talqin qilishda samarali ishlatilishi bo‘yicha tizimlashtirilgan yondashuv shakllantirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy

ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, ulardan, 10 tasi mahalliy va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy hajmi 208 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Metafora hodisasi tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlamgan. Qiyosiy va interaksion konsepsiyalar bo‘yicha bildirilgan tanqidiy mulohazalar natijasida ifodaning metaforik ma’nosi faqatgina to‘liq kontekst doirasida tushunilishi ayon bo‘ladi. Metafora so‘z yoki gapning aniq leksik ma’nosi bilan nutq subyektining nazarda tutgan ma’nosi o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan metafora nutq subyekti tomonidan qo‘llanilgan so‘zlar bilan kommunikativ maqsadlar o‘rtasidagi farq asosida yuzaga keladi va asosiy muammo aniq ma’noga ega bo‘lgan gap bilan metaforik ma’no o‘rtasidagi bog‘lanish tamoyillarini aniqlashdan iborat.

S. Levin metaforalarning bir qismini semantik nomuvofiqlik natijasi sifatida izohlaydi, biroq barcha metaforalar semantik yoki sintaktik nomuvofiqlik bilan cheklanmasligini, pragmatik nomuvofiqlik asosida yuzaga keladigan metaforalar ham mavjudligini ko‘rsatadi[5]. G. Grays implikatura nazariyasi doirasida metaforali ifodalarni pragmatik jihatdan tushuntirishga harakat qiladi[6]. J. Serl esa metaforani gapning aniq ma’nosi bilan nutq subyektining maqsadi o‘rtasidagi tizimli nomuvofiqlik sifatida talqin qilib, metaforik ma’noni aniqlash uchun maxsus strategiyalar majmuasini taklif etadi. Biroq R. Gibbs J. Serl tomonidan ishlab chiqilgan talqin qoidalari algoritmik tarzda faollashmasligini, ya’ni qat’iy va universal mexanizm sifatida ishlamasligini qayd etadi[7]. V.V. Petrov esa Serl modelida xususiyatlarni tanlash mezonlari yetarlicha aniqlanmaganini tanqid qiladi[8].

Interaksion nazariyaning ayrim talqinlarida subyektning faol kognitiv roli yetarli darajada inobatga olinmagani ham tanqid qilinadi. M. Blek nazariyasida

[5] Левин С. Прагматическое отклонение высказывания //Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 342-346.
[6] Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – Москва, 1985. – С. 217-237.
[7] Gibbs R.W. the Poetics of Mind. Figurative thought, language, and under-standing. – New York. Cambridge University Press, 1994. – P. 228-230.
[8] Петров В.В. Метафора: от семантических представлений к когнитивному анализу // Вопросы языкознания. – Москва, 1990. №3. – С. 136.

metaforani tushunish jarayoni ko‘proq namuna ta’siri bilan cheklanib, subyekt faoliyatini cheklovchi jarayon sifatida talqin etiladi[9].

V.N. Teliya metaforada asosiy va yordamchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani interaksiya sifatida izohlaydi. Interaksiya subyektlar, ularning belgilari va bog‘liqliklari o‘rtasidagi munosabat bo‘lib, metaforik g‘oya uchun muvofiq belgilarni sintez qilishga xizmat qiladi. Metaforizatsiyaning boshlang‘ich bosqichi o‘xshashlikni qabul qilish bo‘lib, u metaforaning “go‘yoki” modusi orqali ifodalanadi[10]. Metafora oddiy qiyoslashdan farqli ravishda yangi konseptlar yaratish imkonini beradi, qiyoslash esa metaforizatsiyaning zarur, ammo yordamchi bosqichi hisoblanadi.

Metaforaning universalligi, avvalo, ko‘chimning umumiy turlari orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, S. Ulman tomonidan ajratilgan antropomorfizm, aniqdan mavhumga ko‘chirish va sinesteziya kabi metaforik mexanizmlar turli tillarda uchrashi bilan tavsiflanadi[11]. O‘zbek tilshunosligida M. Mirtojiyev metaforalarni oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya turlariga ajratib, ularning hosil bo‘lishi referentlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanishini ko‘rsatadi[12]. Masalan, *darvoza* so‘zining futbol terminologiyasida qo‘llanishi tashqi shakl va vazifa o‘xshashligiga tayangan oddiy metafora namunasi hisoblanadi.

Personifikatsiya jarayonida jonli mavjudotlarga xos xususiyatlar jonsiz ob’ektlarga yuklanadi. O‘zbek tilidagi “*Quyosh damini shamol kesar edi”* (Oybek) misolida “*issiq*” jonli mavjudot nafasi bilan qiyoslanib, personifikatsiya hosil qilingan. Sinesteziyada esa turli sezgi organlariga oid xususiyatlar o‘zaro bog‘lanadi: “*mayin ovoz”* birikmasida teginish sezgisi eshitish bilan uyg‘unlashadi.

J. Lakoff va M. Johnson metaforalarni orientatsion, ontologik va strukturaviy turlarga ajratib, ularning universalligini kognitiv asoslar bilan izohlaydilar[13]. Masalan, orientatsion metaforalarda hissiy holatlar makon orqali ifodalanadi: ingliz tilida “*feeling down”*, ispan tilida “*estar por los suelos”*, o‘zbek tilida esa “*ko‘ngli ko‘tarildi” / “ko‘ngli tushdi”* kabi birliklar bunga misol bo‘la oladi. Ontologik metaforalarda esa mavhum tushunchalar predmetlashadi: “*shirin baxt”*, “*muvaffaqiyat porlaydi”*, “*omad kulib boqdi”*.

Strukturaviy metaforalar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqa soha tushunchalari orqali talqin qilishga xizmat qiladi. Xususan, uchala tilda ham iqtisodiy va siyosiy muammolar “kasallik” obrazi orqali ifodalanadi: inglizcha “*the economy is sick”*, ispancha “*la economía está enferma”*, o‘zbekcha “*iqtisodiyot og‘ir ahvolda”*. Ushbu metaforalar muammoning murakkabligini kuchaytirish va baholovchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Metaforalarning milliy xususiyati, ayniqsa, somatik birliklar faollashuvida

[9] Блэк М. Метафора // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 158.

[10] Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и ее экспрессивно-¬оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – Москва: Наука, 1988. – С. 36-37.

[11] Ульман С. Семантические универсалии // Новое в лингвистике. – Москва, 1970. Вып. 5. – С. 277-279.

[12] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2010. – Б. 97.

[13] Lakoff G., & Johnson M. Metaphors we live by. –Chicago and London: University of Chicago Press, 1980. – 256p.

yaqqol namoyon bo‘ladi. *Yurak / heart / corazón* – tuyg‘u va jasorat, *ko‘z / eye / ojo* – nazorat va e’tibor, *bosh / head / cabeza* – ong va rahbarlik konseptlarini ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi “*He has a big heart”*, ispan tilidagi “*romper el corazón”*, o‘zbek tilidagi “*yuragi tog‘dek”* bir xil somatik asosga ega bo‘lsa-da, milliy ifoda vositalari bilan farqlanadi.

Shu bilan birga, ayrim metaforalar to‘liq universal tusga ega emas, balki ehtimoliy xarakterga ega ekanligi ta’kidlanadi. Masalan, ingliz va ispan tillarida faol bo‘lgan “*TIME IS MONEY*” metaforasi o‘zbek tilida markaziy konsept sifatida emas, balki *vaqt – bebaho*, *vaqt oltindan qimmat* kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Zoonimik metaforalar tahlili ham universal va milliy jihatlarni ochib beradi. *Tulki* – ayyorlik, *cho‘chqa* – ochko‘zlik uchala tilda umumiy bo‘lsa, *chicken* (ingliz), *gallina* (ispan) va o‘zbek tilidagi *quyonyurak* metaforalari jur’atsizlikni turli obrazlar orqali ifodalaydi. Bu holat semantik yadro umumiy, ammo metaforik prototip milliy ekanini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Metaforik tuzilmalarning konseptuallashuvi: kognitiv-pragmatik yondashuv”** deb nomlangan. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar ko‘pchilik hollarda lisoniy hodisalarni kognitiv yondashuv bilan tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Kognitiv tilshunoslik nazariyasiga ko‘ra, har qanday lisoniy birlik inson tafakkuri mahsuli sifatida shakllangan konseptual mantiqiy-mental tuzilmani aks ettiradi. Metafora esa inson tafakkurining ajralmas qismi bo‘lib, voqelikni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Metafora tadqiqida zamonaviy metodlar, xususan freymlı modellashtirish va konseptual tahlil qo‘llaniladi. Freym tahlili lisoniy birliklarning semantik tuzilmasini ko‘rgazmali tasvirlash va ma’lumotni kategorialashtirish imkonini beradi. Masalan, “HAYOT – BU SAYOHAT” metaforasi: “hayot” – maqsad konsepti, “sayohat” – manba freymi. *Yo‘l, yo‘lovchi, maqsadlar, to‘siqlar* kabi elementlar orqali “hayot” konsepti faollashadi.

Ingliz tilidagi “TIME IS MONEY”: “time” maqsad konsepti, “money” manba freymi. Pulga oid elementlar vaqt tushunchasiga ko‘chiriladi: *sarflash, tejash, isrof qilish*.

Ispan tilidagi “LA MENTE ES UN JARDÍN”: “aql” – maqsad konsepti, “bog‘” – manba freymi, uni *sug‘orish, parvarish qilish* jarayonlari aqlni rivojlantirishga ta’sir qiladi. Freym elementlarining semantik uyg‘unligi metaforaning samarali voqelanishini ta’minlaydi.

Konseptual tahlil metaforani lisoniy birliklar orqali kognitiv tuzilmalarda o‘rganadi. O‘zbek olimlari, jumladan A.G. Yuldashev, konseptual metaforani idiomatik ifodalar hosil bo‘lishi va tafakkur bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘radi[14]. I. Turamuratova metaforani inson bilimini konseptual darajada anglashga qaratilgan bilish hodisasi deb baholaydi[15].

[14] Yuldashev A.G. Cognitive aspect of the Uzbek idiomatic words and their equivalents in English // Philology Matters: Vol. 2019: Iss. 2, Article 2. – Pp. 77-85.

[15] Турамуратова И.И. Метафора как основной троп испанского поэтического дискурса (на материале поэзии Федерико Гарсиа Лорки). Автореф. дис... доктора философии по филол. наукам. – Ташкент, 2022. – Б. 16.

J. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora oddiy lisoniy hodisa emas, balki kundalik konseptual voqelik bo‘lib, tafakkur va xatti-harakatlarimizni shakllantiradi[16]. Metafora maydonlararo ko‘chim (cross-domain mapping) orqali shakllanadi: manba maydondagi bilim mo‘ljal maydonga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, metafora milliy mentalitet va lingvomadaniy kontekstga bog‘liq bo‘ladi, masalan:

O‘zbek tilida “*osmondagi oyni va’da qilmoq*” – va’daning amalga oshmasligi.

Ingliz tilida – “*to promise the moon*”.

Nemis va rus tillarida – “*uzoqdagi tog‘ni keltirib berishga*” yoki “*обещать кому-то золотые горы*”.

Shu tariqa, metafora kognitiv tafakkur jarayonini, konseptual bilish va milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi, freym va konseptual tahlil esa uning strukturasini va dinamikasini ochib beradi.

Mualliflar izohlashga uringan konseptual metaforalardan biri ARGUMENT IS WAR bo‘lib, uning konseptual tuzilishi quyidagicha sharhlanadi[17]: *Your claims are indefensible; He attacked every weak point in my argument; His criticisms were right on target; I demolished his argument; I’ve never won an argument with him.*

Ko‘rinadiki, bahs jang maydonidagi harakatlarga tenglashtiriladi va urush haqidagi bilim bahs faoliyatiga xaritalanadi. Bunday maydonlararo xaritalash faqat bir tomonlama bo‘lib, manbadagi bilim mo‘ljalga o‘tadi. Manba maydonidagi bilimning faqat bir qismi mo‘ljal maydonga o‘rin oladi. Z. Kovechning “invariantlik tamoyili”ga ko‘ra, “metaforik ko‘chimda ishtirok etayotgan bilim bo‘lagi mo‘ljaldagi tushuncha ifodasi uchun yetarli bo‘lishi shart”[18]. Masalan, PEOPLE ARE PLANTS metaforasida odamlar hayoti fotosintez bilan bog‘liq emas, ammo hayotning davriy tabiati yetarli bo‘ladi. Konseptual metaforalar asosan universal xususiyatga ega[19].

Konseptual metafora nazariyasi metodik tanqidga uchraydi: metaforik tuzilma va unga mos lisoniy shakllarni aniqlash dalillovchi amalsizdir. Lisoniy misollarni matndan topish qiyinligi sababli til korpuslaridan foydalanish tavsiya qilinadi[20]. Ikkinchi muammo – mental va lisoniy tugunlarning mosligini aniqlash qiyin. J. Stin besh bosqichli tahlilni taklif qilgan[21].

Blending nazariyasi metafora shakllanishini manba va mo‘ljal maydonlari o‘zaro munosabatida sodir bo‘lishi orqali tushuntiradi[22]. “Qorishish hududi”da ikkala maydon xususiyatlari tanlab olinadi, bu esa yangi ma’no hosil bo‘lishiga

[16] Lakoff G., & Johnson M. Metaphors we live by. –Chicago and London: University of Chicago Press, 1980. – 256p.

[17] Lakoff G., & Johnson M. Metaphors we live by. –Chicago and London: University of Chicago Press, 1980. – P. 4.

[18] Kövecses Z. Metaphor and emotion: Language, culture, and body in human feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 103.

[19] Lakoff G., & Johnson M. Philosophy in the flesh. – New York: Basic Books, 1999. – P. 57.

[20] Deignan A. Metaphor and corpus linguistics. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2005. – 235 p.

[21] Steen G.J. Analyzing metaphor in literature: an empirical approach // Poetics Today, 1999. Vol. 20(3). – Pp. 499-522.

[22] Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind’s Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 400 p.

olib keladi[23]. Metafora faqat o‘xshashlikni emas, balki yangi konseptual va perseptual xususiyatlarni yaratadi[24]. Blending yangi metaforik iboralar hosil qilishda yetakchi rol o‘ynaydi[25].

J. Lakoff va M. Jonson konseptual metaforalarni universal va aniq darajadagi metaforalarga ajratadi. Universal metaforalar kundalik tafakkurda bevosita faollashadigan, aniq manba va maqsad doiralari bo‘lmagan tajribalar asosida shakllanadi[26]. Shunday qilib, konseptual metafora tafakkur darajasida faoliyat yurituvchi kognitiv jarayon hosilasi bo‘lib, til, madaniyat va inson tajribasini birlashtiradi. Oddiy metafora esa, ko‘proq tilshunoslik doirasida qoladigan, ma’noni kuchaytiruvchi tasviriy vosita sifatida voqelanadi. Shu sababli, konseptual metafora an’anaviy metaforadan tubdan farq qiladi va u tafakkurni tashkil qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida qabul qilinadi.

Tilshunoslar metaforaning diskursdagi lisoniy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish muhimligini ta’kidlaydilar, chunki iboraning shakli idrok va tavsiflash uchun zarur[27]. G. Qobuljonova metaforani tilning moslashuvchi vositasi sifatida ko‘rib, uning obyektiv yoki subyektiv o‘xshashliklarni ifodalash orqali ma’nolarni yuzaga chiqarishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, metafora ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, til metodologiyasi, ijtimoiy, mental va emotsional kontekst bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Shu bois, kognitiv yondashuv asosida metaforani o‘rganish va yashirin kognitiv tuzilmalarni aniqlash uchun lisoniy tahlilni makrokontekst, yaxlit matn yoki diskurs darajasiga ko‘chirish zarur[28].

Badiiy diskursda metaforaning pragmatik komponenti yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida metaforalar qahramonlarning ichki holati va shaxslararo munosabatlarni ochib berish vazifasini bajaradi. A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida uchraydigan “qochqoq” va “quvloq” metaforalari bunga yaqqol misoldir. Ushbu birliklar asl ma’nosida emas, balki qahramonlar o‘rtasidagi psixologik yaqinlik, yumor va yengil tanbehni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Sh. Safarov pragmatik ma’noni “nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, o‘zaro munosabati va kommunikativ maqsadiga bog‘liq holda shakllanuvchi ma’no qatlamidir” deb izohlaydi[29].

Badiiy diskursda metaforalar to‘liq yoki qisman aniqlangan semantikaga ega bo‘ladi. Rauf Parfi she’riyatida uchraydigan “zulmat” obrazi qisman aniqlangan metafora bo‘lib, uning mazmuni muallif tomonidan chegaralanmagan. O‘quvchi uni ruhiy tushkunlik, ijtimoiy adolatsizlik yoki ichki kurash ramzi sifatida talqin qilishi mumkin. A. Demyankov bunday metaforalarning pragmatik ahamiyatini

[23] Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of literary text. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Milliy Kutubxona, 2013. – P. 93.
[24] Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 84.
[25] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 48.
[26] Kövecses Z. Metaphor and emotion: Language, culture, and body in human feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 169.
[27] Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. 4-сон. – Б. 33-37; Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносининг компонент таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. 3 сон. – Б. 57-61.
[28] Қобулжонова Г. Метафора ва унинг табиатига қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. 2-сон. – Б. 40-45.
[29] Сафаров Ш. Когнитивно-интерактивные функции метафоры // Мир духовной культуры человечества: язык, литература, искусство. – Самарканд, 2006. – С. 82-85.

alohida ta’kidlab, ularni o‘quvchi tafakkurini faollashtiruvchi semantik-pragmatik vosita sifatida baholaydi[30].

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Turli diskurslarda metaforaning faollashuvi”** deb nomlangan. Metaforaga bo‘lgan ilmiy qiziqishning ortishi uning turli diskurslarda – badiiy, publitsistik, ilmiy, ta’limiy, reklama, ommaviy axborot vositalari va kundalik muloqotda faol qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Natijada metafora muammosi san’atshunoslik, falsafa, psixologiya, tilshunoslik, tarjimashunoslik kabi fanlararo tadqiqot obyektiga aylandi. R. Hoffmann metaforaning universalligini ta’kidlab, uni “inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida tushuntirish va tasvirlash vositasi” sifatida baholaydi[31].

Amaliy nutqda metafora, ayniqsa, aniqlik va bir ma’nolilik talab etiladigan sohalarda (masalan, ko‘rsatmalar, qoidalar, texnik tavsiflar) kam qo‘llaniladi. Metafora jumla tuzilishining asosiy komponentlari – subyekt va predikat bajaradigan identifikatsiya va yangi axborot yetkazish vazifalari bilan to‘liq mos kelmaydi. Shu sababli, metaforaning semantik noaniqligi uni amaliy muloqotda samarasiz vositaga aylantiradi va vaqt o‘tishi bilan u o‘z obrazliligini yo‘qotib, konvensiyalashgan leksik birlikka aylanadi.

Kognitiv metafora nazariyasida dastlab metaforaning markaziy o‘rni tilda emas, balki tafakkurda, degan qarash ustun bo‘lgan[32]. Biroq so‘nggi tadqiqotlar metaforaning aynan lisoniy qo‘llanilishini mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishga yo‘naltirildi[33]. Kognitiv-diskursiv yondashuvlar metaforani bir vaqtning o‘zida kognitiv va kommunikativ hodisa sifatida tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi[34].

E. Kassirer tafakkurni metaforik (mifopoetik) va diskursiv-mantiqiy turlarga ajratib, metaforaning modellashtiruvchi rolini alohida ta’kidlaydi[35]. Kalit metaforalar esa bilimlarni bir sohadan boshqasiga ko‘chirish, yangi konseptlarni shakllantirish va ilmiy paradigmalarning almashinuvi jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etadi [36].

Ilmiy-texnik diskurs har qanday tilda aniqlik, mantiqiylik va tizimlilikni talab qiluvchi murakkab kommunikativ jarayon hisoblanadi. An’anaviy yondashuvlarda ushbu nutq turida metaforadan foydalanish cheklangan deb qaralgan bo‘lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar metaforaning ilmiy bilimni shakllantirish va uzatishda alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Metafora murakkab va mavhum

[30] Демьянков В.З. О формализации прагматических свойств языка // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики. – Москва: ИНИОН АН СССР, 1984. – С. 197.

[31] Hoffman R.R. Metaphor in science // The psycholinguistics of figurative language. – Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1980. – Pp. 393-423.

[32] Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. 2nd edition. – Pp. 202-251.

[33] Cameron L. What is metaphor and why does it matter? // Metaphor analysis. – London: Equinox, 2010. – Pp. 3-25; Deignan A. Metaphorical expressions and culture // Metaphor and Symbol, 2003. Vol. 18(4). – Pp. 255-271; Semino E. Metaphor in discourse. – Cambridge: Cambridge University Press. 2008. – 247 p.; Steen G.J. Finding metaphor in grammar and usage. – Amsterdam: John Benjamins, 2007. – 430 p.

[34] Ашурова Д.У. Стилистика в парадигме когнитивно-дискурсивной теории языка. – Ташкент: Magic Print Asia, 2025. – 212 с.

[35] Кассирер Э. Сила метафоры // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 43-67.

[36] Минский М. Фреймы для представления знаний. – Москва: Энергия, 1979. – С. 26.

tushunchalarni insonning kundalik tajribasiga tayangan holda modellashtirish imkonini beradi va shu orqali ilmiy tushuntirishni yengillashtiradi.

N.D. Arutyunova qayd etganidek, ilmiy diskursda metaforaga munosabat jamiyatning ilmiy-madaniy rivoji, ilmiy metodologiyada analogik fikrlashga berilgan baho va metaforaning mohiyati haqidagi qarashlar bilan uzviy bog‘liqdir[37]. Shu nuqtayi nazardan, metafora ilmiy-texnik diskursda ikki asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, yangi bilimlarni yaratishda evristik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi; ikkinchidan, murakkab ilmiy tushunchalarni tushuntirish va ommalashtirishda didaktik rol o‘ynaydi.

Ilmiy-texnik terminologiyada metafora asosida shakllangan birliklar turli tillarda o‘xshash kognitiv mexanizmlarga tayanadi. Bunga “*elektr zaryadi*” tushunchasi misol bo‘la oladi: O‘zbek tilida: *elektr zaryadi – “elektrlangan jismdagi elektr miqdori*”; Ingliz tilida: *electric charge*; Ispan tilida: *carga eléctrica*. Ushbu terminning barcha tillardagi shakllari tarixan “yuk”, “og‘irlik” kabi konkret tushunchaga tayangan holda metafora va analogiya asosida shakllangan. Demak, mavhum fizik xossa moddiy tajriba orqali tushuntirilgan bo‘lib, bu metaforaning ilmiy model yaratishdagi rolini ko‘rsatadi.

Shunga o‘xshash holat biologik diskursda ham kuzatiladi. Darvin nazariyasidagi “*tabiiy tanlanish*” atamasi inson faoliyatiga xos “tanlash” harakati asosida metaforik yo‘l bilan shakllangan: O‘zbek tilida: *tabiiy tanlanish;* Ingliz tilida: *natural selection;* Ispan tilida: *selección natural*. Bu yerda ongli agentga xos bo‘lgan “tanlash” konsepti tabiat jarayoniga ko‘chirilgan bo‘lib, evolyutsion jarayonni tushunarli konseptual model orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari diskursida ham metafora keng qo‘llaniladi. Masalan, zararli dasturlarni ifodalovchi birliklar: O‘zbek tilida: *kompyuter virusi;* Ingliz tilida: *computer virus;* Ispan tilida: *virus informático*. Bu metaforada biologik sohadagi “virus” tushunchasi axborot tizimlariga ko‘chirilgan bo‘lib, zarar yetkazish, ko‘payish va tarqalish kabi xususiyatlar orqali texnik hodisa izohlanadi.

Ilmiy-texnik diskursda metafora ko‘pincha qolipli ifodalar tarkibida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz ilmiy matnlarida uchraydigan *This paper argues…* yoki *This result suggests…* kabi konstruksiyalar jonsiz obyektlarni faol subyekt sifatida tasvirlab, ilmiy bilimni yaratish va taqdim etishning diskursiv strategiyasiga aylanadi[38]. Bu holat metaforaning yashirin, lekin samarali lisoniy mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

Ilmiy-texnik diskursda metaforik birliklar faqat terminlar bilan cheklanmay, umumiy leksik birliklarning diskursiv ma’noda qayta talqin qilinishi orqali ham yuzaga chiqadi. Shunday birliklardan biri “rol” so‘zidir. Mazkur leksema an’anaviy ma’noda muayyan vazifa yoki ijro etiladigan harakatni bildirsa-da, ilmiy va ijtimoiy diskursda u ko‘pincha metaforik ma’noda, ya’ni shaxs, obyekt yoki tushunchaning tizimdagi o‘rnini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan, “*Har bir shaxs jamiyatda muayyan rol o‘ynaydi*” jumlasida “*rol*” fizik harakatni emas, balki

[37] Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, 1990. – С. 136-137.

[38] Dorgeloh H., Wanner A. Formulaic argumentation in scientific discourse // Formulaic language. Vol. 2: Acquisition, loss, psychological reality and functional explanations. – Amsterdam: John Benjamins, 2009. – Pp. 523-544.

ijtimoiy va simvolik vazifani anglatadi. Ushbu metafora “HAYOT – SAHNA” kognitiv modeliga asoslanadi. E. Goffmanning ijtimoiy interaksiyalarni sahna harakati sifatida talqin qiluvchi nazariyasida insonlar kundalik hayotda turli “rollar”ni ijro etuvchi aktyorlar sifatida konseptuallashtiriladi[39]. Shu asosda, “rol” tushunchasi ijtimoiy, ilmiy va texnik jarayonlarni anglash uchun samarali metaforik vositaga aylanadi.

Mazkur holat ingliz va ispan tillari ilmiy matnlarida ham kuzatiladi. Ingliz tilida role so‘zi texnik tizimdagi funksional o‘rinni ifodalash uchun keng qo‘llaniladi: *The role of humans in the human-machine system*. Bu yerda inson texnik jarayonning faol agenti sifatida talqin qilinadi va “*human as an actor*” kognitiv modeli shakllanadi. Ispan tilida ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi: *Las proteínas desempeñan un rol crucial en la regulación de los procesos celulares*. Bu misolda biologik elementlar insonning ijtimoiy roliga qiyoslanib, ularning vazifasi metaforik tarzda “ijro” sifatida tasvirlanadi.

Ilmiy-texnik diskursda metaforalashuv fazoviy birliklar orqali ham amalga oshadi. Masalan, “*bu yerda / here / aquí*” birliklari dastlab real fazoni bildirsa-da, ilmiy matnda ko‘pincha diskursiv bosqichni anglatadi. Ingliz tilidagi *We have used here a mathematical theorem…*, ispan tilidagi *Aquí aplicamos un principio físico…* va o‘zbek tilidagi *bu yerda mazkur tushuncha izohlanadi* kabi konstruksiyalarda mazkur birliklar “fikrning ayni nuqtasi” ma’nosini bildiradi. Demak, fazoviy ma’no diskursiv ma’noga ko‘chirilgan bo‘lib, bu holat metaforik o‘tish natijasidir.

Shu kabi metaforik mexanizm “*nuqtai nazar / point of view / punto de vista*” birikmalarida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklar fizik ko‘rish nuqtasidan kelib chiqqan holda ilmiy tahlil, metodologik qarash yoki muallif qarashini ifodalovchi mavhum tushunchaga aylangan. Ingliz, ispan va o‘zbek tillaridagi *From a linguistic point of view…, Desde el punto de vista estructural…, Lingvistik nuqtai nazardan*… kabi misollar BILISH – KO‘RISH kognitiv metaforasiga asoslanadi. Ya’ni, mavhum fikrlash jarayoni sensor tajriba orqali konseptuallashtiriladi.

Zamonaviy ilmiy diskursda metaforaning yana bir faol shakli “*mif / myth / mito*” leksemalari bilan bog‘liq. Ingliz va ispan tillarida bu so‘zlar an’anaviy folklor ma’nosidan chiqib, “keng tarqalgan, ammo noto‘g‘ri ishonch”ni ifodalovchi ilmiy-tanqidiy metaforaga aylangan. Masalan, ingliz tilida mistaken myths about Darwin, ispan tilida esa mitos científicos kabi birikmalar ilmiy noto‘g‘ri tasavvurlarni fosh etishda qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa “afsona” so‘zi hozircha asosan denotativ, badiiy-folklor ma’nosini saqlab qolgan bo‘lib, ilmiy diskursda metaforik birlik sifatida yetarlicha mustahkamlanmagan.

Xuddi shunday farq “*antidote / antídoto / antidot*” birliklarida ham kuzatiladi. Ingliz va ispan ilmiy-ommabop matnlarida ushbu so‘z “bilimsizlik”, “noto‘g‘ri qarash” yoki “ijtimoiy muammo”ga qarshi vosita sifatida metaforik ma’noda ishlatiladi (Education is the antidote to ignorance). O‘zbek tilida esa “antidot” hozircha asosan tibbiy-biologik kontekst bilan chegaralanib qolmoqda va mavhum tushunchalarga ko‘chirilgan metaforik qo‘llanish hali keng tarqalmagan.

Ilmiy-texnik diskursda texnik obyektlar faoliyatini ifodalovchi “*vazifasini bajaradi / acts / cumple su función*” kabi birliklar ham antropomorfik metaforaga

[39] Goffman E. The presentation of self in everyday life. – New York: Doubleday Anchor, 1959. – 259 p.

asoslanadi. Ushbu iboralar inson harakati va mas'uliyati tushunchasidan kelib chiqib, mashina, sensor yoki algoritm faoliyatini tushuntirishga xizmat qiladi. Natijada texnik jarayonlar inson tajribasiga yaqinlashtiriladi va kognitiv jihatdan yanada tushunarli shaklga keltiriladi.

Siyosiy diskursda keng qo'llaniladigan strukturaviy metaforalardan biri POLITICS AS CONSTRUCTION (Siyosat – bu qurilish) konseptual metaforasidir. Ushbu metaforada siyosiy jarayonlar bino yoki inshoot barpo etish jarayoniga qiyoslanadi. Natijada siyosat rejalashtirish, poydevor yaratish, mustahkamlash, ta'mirlash va yangilash kabi qurilishga xos bosqichlar orqali konseptuallashtiriladi.

J. Lakoff va M. Johnsonning ta'kidlashicha, qurilish metaforalari ijtimoiy tizimlarni barqarorlik va struktura nuqtayi nazaridan idrok etishga imkon beradi[40]. Siyosiy diskursda esa ushbu metafora hokimiyatni "mustahkam tuzilma", davlatni esa "barpo etilgan inshoot" sifatida tasavvur qilishga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi siyosiy nutqlarda *build, foundation, pillar, structure, rebuild* kabi birliklar aynan shu konseptual metafora doirasida faol qo'llaniladi. Masalan, AQSH prezidenti Barak Obamaning quyidagi bayonotida davlat taraqqiyoti qurilish jarayoni sifatida ifodalanadi: *We are building a stronger foundation for future generations.* (Biz kelajak avlodlar uchun yanada mustahkam poydevor barpo etmoqdamiz.) Misolda *foundation* so'zi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning asosiy negizi sifatida metaforik ma'noda qo'llanilgan. Poydevor mustahkam bo'lsa, binoning barqarorligi ta'minlanadi; xuddi shuningdek, siyosiy qarorlar to'g'ri bo'lsa, davlat rivoji barqaror bo'ladi.

Shunga o'xshash holat Buyuk Britaniya siyosiy diskursida ham kuzatiladi. Margaret Tetcher nutqlarida *structure* va *rebuild* kabi birliklar siyosiy islohotlarni qurilish jarayoni sifatida talqin etishga xizmat qiladi: *We must rebuild the structure of our economy.* (Biz iqtisodiyotimiz tuzilmasini qayta qurishimiz kerak.) Ushbu metafora orqali iqtisodiy muammolar "eskirgan bino", islohotlar esa "qayta qurish" jarayoni sifatida konseptuallashtiriladi.

O'zbek siyosiy diskursida ham qurilish metaforasi yuqori faollikka ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqlarida *poydevor, asos, mustahkamlash, barpo etish* kabi birliklar muntazam uchraydi. Masalan: *Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini yaratmoqdamiz.*Mazkur jumlada siyosat aniq moddiy inshootga o'xshatilib, huquqiy tizim va fuqarolik jamiyati uning tayanch qurilmalari sifatida talqin qilinadi. Bu metafora siyosiy islohotlarni uzoq muddatli, bosqichma-bosqich qurilish jarayoni sifatida ko'rsatadi va barqarorlik g'oyasini kuchaytiradi.

Ispan siyosiy diskursida ham LA POLÍTICA COMO CONSTRUCCIÓN metaforasi keng qo'llaniladi. Jumladan: *Estamos construyendo un Estado más justo y sólido.* (Biz yanada adolatli va mustahkam davlatni barpo etmoqdamiz.). Misolda *construyendo* fe'li siyosiy jarayonning davomiyligini, *sólido* sifati esa

[40] Lakoff G., & Johnson M. Metaphors we live by. –Chicago and London: University of Chicago Press, 1980. – 256p.

barqarorlik va ishonchlilikni anglatadi. Davlat “mustahkam bino” sifatida idrok etiladi.

P. Chilton ta’kidlaganidek, siyosiy metaforalar ko‘pincha “tayyor kognitiv modellarga” tayanadi[41]. Masalan, YEVROPA – UMUMIY UY metaforasi Yevropa integratsiyasini tabiiy, zarur va barqaror jarayon sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu yerda “uy” tushunchasi xavfsizlik, umumiy mas’uliyat va hamkorlik bilan bog‘langan bo‘lib, siyosiy tuzilmani inson hayotidagi eng asosiy ehtiyojlardan biri bilan qiyoslaydi. Shu tariqa, murakkab siyosiy tizimlar kundalik tajribaga yaqinlashtiriladi.

Z. Kövecses tomonidan tavsiflangan ABSTRACT COMPLEX SYSTEMS ARE BUILDINGS umumiy metaforasi siyosiy diskursda ayniqsa unumli ishlaydi, chunki siyosatning o‘zi murakkab, ko‘p qatlamli va mavhum tizimdir. Qurilish metaforasi ushbu mavhumlikni “poydevor”, “tuzilma”, “mustahkamlik”, “qulash” kabi konkret tushunchalar orqali anglash imkonini beradi. Natijada siyosiy barqarorlik – mustahkam bino, inqiroz esa – yoriq yoki qulash sifatida idrok etiladi.

Tahlil qilingan o‘zbek, ingliz va ispan siyosiy diskurslari shuni ko‘rsatadiki, konseptual metaforalar tillararo umumiylikka ega bo‘lsa-da, ularning faollashuv darajasi va funksional yuklamasi milliy diskurs an’analari bilan belgilanadi. Ingliz va ispan siyosiy nutqlarida “Siyosat – urush” metaforasi ochiq va keskin shaklda namoyon bo‘lsa, o‘zbek siyosiy diskursida u ko‘proq cheklangan, ramziy yoki publitsistik darajada qo‘llaniladi. Rasmiy nutqlarda esa “Siyosat – hamkorlik”, “Siyosat – taraqqiyot”, “Siyosat – qurilish” kabi metaforalar ustunlik qiladi.

Bu holat siyosiy diskursda metafora tanlovi nafaqat kognitiv mexanizm, balki ideologik va axloqiy strategiya ekanini ham ko‘rsatadi. Qaysi metaforaning faollashuvi jamiyatda qaysi qadriyatlar (raqobat yoki hamkorlik, kurash yoki barqarorlik) ustuvor ekanini aks ettiradi. Shu bois, konseptual metafora siyosiy nutqda faqat til hodisasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli diskursiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Publitsistik matnda metafora voqelikni ifodalash, muallifning baholash va emotsional munosabatini yetkazish vositasi sifatida markaziy o‘rin tutadi. U nafaqat obrazlilik va stilistik rang-baranglikni oshiradi, balki o‘quvchining kognitiv faoliyatini rag‘batlantiradi, murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalarni sodda va tushunarli shaklda idrok etishga yordam beradi.

Ingliz tilida metafora misoli sifatida “*Gilmore case turning into a circus for media*”[42] keltiriladi. “*Circus*” obrazida sud jarayoni jiddiylikdan mahrum, ommaviy axborot vositalari tomonidan shov-shuvli shouga aylangan holatda tasvirlanadi. Bu metafora ekspressiv vazifa orqali muallif hissiy munosabatini bildiradi; baholash vazifasi orqali voqeaga tanqidiy nuqtayi nazar beradi; stilistik vazifa orqali matnni jonli va esda qolarli qiladi; pragmatik vazifa orqali o‘quvchini tanqidiy fikrlashga chorlaydi; kognitiv vazifa esa cheklangan, chunki asosiy maqsad hissiy va baholash ta’sirini kuchaytirishdir.

[41] Chilton P. Security metaphors: Cold war discourse from containment to common European home. – Berne: Peter Lang, 1996. – 468 p.
[42] Milwaukee Journal, 1976-12-03. https://ultimatepopculture.fandom.com/wiki/Media_circus

Ispan tilida, “*Venezuela y la tormenta perfecta*”[43] maqolasida “*tormenta perfecta*” (“mukammal bo‘ron”) metaforasi mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozning bir vaqtda yuz berayotgan murakkab jarayonini ifodalaydi. Bu metafora kognitiv vazifa orqali murakkab voqealarni bir butun holatda idrok etishga yordam beradi; ekspressiv va baholash vazifasi orqali muallifning xavotirli va salbiy munosabati ifodalanadi; stilistik vazifa matnga vizual va estetik ta’sir beradi; pragmatik vazifa o‘quvchini ijtimoiy voqelikni tanqidiy baholashga chaqiradi.

O‘zbek tilida esa “*Korrupsiya – mentalitet darajasiga chiqib ulgurgan illat*”[44] jumlasi keng qo‘llaniladi. *Korrupsiya – Illat* metaforasi korrupsiyani nafaqat huquqiy yoki siyosiy hodisa, balki jamiyat tafakkurida ildiz otgan ichki odat sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, kognitiv vazifa orqali murakkab ijtimoiy hodisani oddiy va tushunarli obrazga aylantiradi; ekspressiv vazifa o‘quvchida hissiy reaktsiya uyg‘otadi; baholash vazifasi muallifning axloqiy tanqidini aks ettiradi; stilistik vazifa ilmiy va xalqona uslubni uyg‘unlashtiradi; pragmatik vazifa ijtimoiy ongni faollashtirishga xizmat qiladi.

Z. Kövecsesning ta’kidlashicha, metaforaning uslubiy kichik o‘lchami – lisoniy tanlov va variativlik kommunikativ kontekst, mavzu, vosita va auditoriyaga bog‘liq. Masalan, Amerika gazetalaridagi futbol maqolalarida jamoa nomlariga asoslangan metaforalar g‘alaba va mag‘lubiyatni ifodalashda tanlanadi: *“Cougars drown Beavers”, “Cowboys corral Buffaloes”, “Air Force torpedoes the Navy”, “Clemson cooks Rice”*[45]. Bu misollar metaforik xaritalashning kognitiv asosini ko‘rsatadi: *qunduz* (beaver) suvda yashashi sababli mag‘lubiyat “*cho‘kish*” orqali, *kovboylar* (cowboys) molni yig‘ishi sababli raqibni “*to‘plash*” orqali ifodalanadi. Shu tarzda metaforalar voqelikni turlicha, ammo mantiqan mos tarzda tasvirlaydi.

Metafora va madaniy modellarning bog‘liqligi Z. Kövecses tomonidan quyidagicha tushuntiriladi: mavhum tushunchalar ko‘pincha metaforalar orqali ta’riflanadi va bu jarayon ongsiz, avtomatik ravishda sodir bo‘ladi. Misol uchun, his-tuyg‘ularni “ichki quvvatli substansiya” sifatida, maqsadni “maqsad” sifatida yoki nikohni “ittifoq” sifatida tushunishimiz shu mexanizmga misoldir[46]. Bu konseptual metaforalar supra-induvidual darajada shakllanib, jismoniy manba va mavhum maqsad domeni o‘rtasidagi konvensionallashgan xaritalash tizimini yaratadi. Madaniy modellarning metafora orqali shakllanishi esa ularning kognitiv va diskursiv samaradorligini oshiradi[47].

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Badiiy diskursda metafora va obrazning kognitiv-semantik faollashuvi”** deb nomlangan. Diskurs – bu faqat matn emas, balki lingvistik va nolisoniy omillar bilan boyitilgan, ko‘p qatlamli hodisa bo‘lib, badiiy matnlarda ijtimoiy va shaxsiy voqealarni aks ettiruvchi lisoniy obrazlar orqali namoyon bo‘ladi. Metafora muallifning voqelikka individual-badiiy tafakkur

[43] NAIZ, 2021-10-11. https://www.naiz.eus/es/iritzia/articulos/venezuela-y-la-tormenta-perfecta
[44] Kun.uz, 2021-05-07. https://kun.uz/news/2021/05/07/mentalitet
[45] Kövecses Z. Metaphor: A practical introduction. – Oxford and New York: Oxford University Press, 2010. – P. 143.
[46] Kövecses Z. Emotion concepts: Social constructionism and cognitive linguistics // The verbal communication of emotions: Interdisciplinary perspectives. – London: Psychology Press, 2002. – P. 17.
[47] Leezenberg M. Contexts of metaphor. – Amsterdam: Institute for Logic, Lan¬guage and Computation, Universiteit van Amsterdam. 1995. – P. 142.

orqali qarashi bilan faollashadi, umumiy tushunchalarga emas, balki obrazli va assotsiativ aloqalarga tayangan holda yaratiladi.

Kognitiv poetika va lingvistika yondashuvlari metaforaning ijtimoiy va estetik vazifalarini tahlil qiladi. Royven Surnga ko‘ra, kognitiv poetika metaforadagi nozik semantik farqlarni ajratib ko‘rsatishga intiladi, shu bilan poetik nutqning o‘ziga xosligini ta’minlaydi[48]. Badiiy metaforalarning kengaytirilgan yoki megametafora shakllari, shuningdek, realizatsiya hodisasi ularni she’riy matnda konkret voqelik makoniga ko‘chirish orqali kuchli obrazli va kognitiv ta’sir yaratadi.

Badiiy metafora faqat matnning semantikasi bilan chegaralanmay, ijtimoiy, kognitiv va estetik jarayonlar orqali ham shakllanadi. G. Lorkaning fikricha, tasavvurning haqiqiy farzandi – metafora bo‘lib, u ichki hissiyot va voqelikni birlashtiradi[49]. Tasviriy san’atda metafora o‘ziga xos mexanizmga ega bo‘lib, lisoniy metaforaning denotat va yordamchi subyekt orqali amalga oshadigan kategoriyaviy farqiga tayangan holda faollashadi.

Semiotik konseptlar iyerarxiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, metafora va ramzni bir-biri bilan to‘liq tenglashtirib bo‘lmaydi. Obraz tushunchasiga tayangan holda, metafora va ramz uning bir qator umumiy xususiyatlarini meros qilib olgan, bu ularni markaziy semiotik konsept – belgidan farqlantiradi. Obrazdek, metafora va ramz ham ijodiy jarayonda, insonning olam tafakkurini amalga oshirish jarayonida tabiiy ravishda yuzaga keladi. Ular nisbatan inson irodasidan mustaqildir. Ularning ma’nosini to‘liq shakllangan, aniq tarzda qarash mumkin emas. Metafora va ramz asosan tushunishdan ko‘ra, talqin qilish obyekti hisoblanadi.

Ayni shu xususiyat metafora va ramzni aloqa vositasi sifatida qo‘llash imkonini cheklaydi: ular orqali xabar yetkazish mumkin emas. Metafora yoki ramz orqali buyruq berish, majburiyatni o‘z zimmasiga olish mumkin emas. Ular manzilsiz (adresatsiz)dir. Bu ularni belgiga nisbatan farqlantiradi. Belgi orqali adresatga qaratilgan nutqiy harakatni amalga oshirish mumkin: salomlashish yoki xayrlashish, taklif qilish yoki chiqarib yuborish, tahdid qilish yoki ogohlantirish kabi. Metafora va ramz esa, nom belgining kommunikativ maqsadni (illokutiv kuchni) o‘z ichiga olgan nutqiy ifoda ekvivalenti bo‘lgan kontekstlarda ishtirok eta olmaydi. Belgi tushunchasi nutq pragmatikasi bilan bog‘liq. Belgi – inson ixtiyoridagi vosita hisoblanadi. Belgilar orqali odamlar o‘zaro muloqot qiladi va shaxsiy munosabatlarni tartibga soladi. Metafora va ramz esa vosita sifatida xizmat qilmaydi, bu obraz uchun ham xos xususiyatdir.

Abdulla Oripovning “Munojotni tinglab” she’rini tahlil qilamiz[50]:

Bas, yetar, cholg‘uchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko‘ksimga urmagil xanjar,
Nahotki dunyoda shuncha g‘am bordir...
Agar shu «Munojot» rost bo‘lsa agar.

[48] Tsur R. On Metaphoring. – Jerusalem: Israel Science Publishers, 1987. – 315 p.
[49] Qarang: Қобулжонова Г. Метафора ва унинг табиатига қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. 2-сон. – Б. 40-45.
[50] Абдулла Орипов. Муножотни тинглаб. https://tafakkur.net/munojotni-tinglab/abdulla-oripov.uz

Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo.
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!

Abdulla Oripovning “Munojotni tinglab” she’ridagi mazkur misralarda shoir tomonidan an’anaviy tarzda shakllangan “tabiat – dor”, “dunyo – jallod” kabi obrazli qiyoslar asosida yangi metaforalar yuzaga keltiriladi. Biroq bu metaforalar to‘g‘ridan to‘g‘ri, qat’iy hukm sifatida ilgari surilayotgan obrazlar emas. Aksincha, ular shartli-ma’noli konstruksiya sifatida, ehtimol va taxmin ruhida qo‘llanadi. She’rning oldingi qismlarida kuydan taralayotgan iztirob va g‘amning chuqurligi ta’kidlangan bo‘lib, mazkur holat inson taqdiriga yuklatilgan dard-alam miqyosi haqidagi iztirobli mulohazani keltirib chiqaradi. Agar haqiqatan ham olamdagi g‘am-shodlik muvozanati shu qadar buzilgan bo‘lsa, inson farzandiga bunday alamni ravo ko‘rayotgan kuch sifatida dunyoni “jallod”, tabiatni esa “dor” deb atash mumkin bo‘lar edi. Biroq poetik nutq mantig‘iga ko‘ra, bu ta’riflar real hukm emas, balki aksincha, lirik subyektning e’tirozi, alami va fig‘oni ifodasidir. Shu bois, mazkur metaforalar orqali shoir “sen shunday emassan” degan inkoriy ma’noni ham bilvosita ilgari suradi: ular dunyo va tabiatga nisbatan ayni damda ayblovdan ko‘ra, iltijo, nola va umid bilan yo‘g‘rilgan murojaat shaklida namoyon bo‘ladi[51].

Ingliz shoiri Tomas Hardining “Hap” she’ridan qisqa parcha[52]:

If but some vengeful god would call to me
From up the sky, and laugh: “Thou suffering thing,
Know that thy sorrow is my ecstasy”…

Ushbu misralarda lirik subyekt quyidagicha tasavvur qiladi: “*agar osmondan qandaydir qasoskor xudo chaqirib, inson azobini o‘z lazzati deb e’lon qilsa edi …”*

T. Xardidagi “vengeful god” (qasoskor xudo) obrazi tashqi ko‘rinishda qat’iy metaforaga o‘xshaydi, lekin u real ishonch yoki e’tiqod sifatida berilmagan. Mazkur obraz “if” (agar) shart konstruksiyasi orqali keltiriladi. Demak, shoir “dunyoni boshqaruvchi kuch haqiqatan ham shafqatsiz”demoqchi emas, balki agar shunday bo‘lganida, inson azobining sababi aniq bo‘lar edi, degan fikrni ilgari surmoqda.

T. Xardi she’ridagi keyingi ma’naviy-mantiqiy rivoj shuni ko‘rsatadiki, agar inson azob-uqubatlarining sababi sifatida ongli va qasdli harakat qiluvchi biror irodaviy kuch mavjud bo‘lganida, unga nisbatan ma’naviy pozitsiya bildirish, ya’ni e’tiroz yoki inkor munosabatini shakllantirish imkoni paydo bo‘lar edi. Biroq, shoir inson azobini tasodifiy va befarq tabiiy jarayonlar natijasi sifatida anglaydi, bunday holat esa fojeaviylik darajasini yanada chuqurlashtiradi. Shu jihatdan, “qasoskor xudo” obrazi ayblov yoki qat’iy hukm vazifasini emas, balki inson tafakkurining azobni ma’nolashtirish, unga ontologik asos topishga bo‘lgan ehtiyojini ifoda etuvchi metafora sifatida namoyon bo‘ladi.

Ispan she’riyatidan Migel de Unamunoning “La oración del ateo” (“Ateistning duosi”) she’ridan parcha[53]:

[51] Каримов О. Абдулла Орипов шеъриятида метафорик образлар. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 5.
[52] Thomas Hardi. Hap. https://www.poetryfoundation.org/poems/46311/hap

Oye mi ruego Tú, Dios que no existes,
y en tu nada recoge estas mis quejas…
(*Eshit iltijomni, sen – mavjud bo‘lmagan Xudo,*
o‘z yo‘qligingda mening shikoyatlarimni jamla …)

Migel de Unamuno poeziyasidagi “mavjud bo‘lmagan Xudo” obrazi shaklan keskin va radikal bayonotga o‘xshash bo‘lsa-da, u haqiqiy ontologik inkor sifatida emas, balki paradoksal nutqiy murojaat sifatida qurilgan. She’riy mantiq nuqtayi nazaridan, agar Xudo real mavjud emas deb qabul qilinsa, inson azob-uqubatlarining murojaat nuqtasi yo‘qoladi va shikoyat hamda ma’naviy e’tiroz manzilsiz qoladi. Shu sababli, “mavjud bo‘lmagan Xudo”ga yo‘naltirilgan murojaat ayblov yoki qat’iy inkorni ifodalamaydi, balki azob tajribasini muayyan subyektga nisbatlash, unga ma’naviy adres belgilashga bo‘lgan ichki ehtiyojning poetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Unamuno she’riyatida kuzatiladigan asosiy semiotik mexanizm shundan iboratki, Xudoni inkor etish orqali unga bo‘lgan ekzistensial ehtiyoj yanada kuchaytiriladi; ya’ni “sen yo‘qsan” degan nutqiy harakat zamirida “sen bo‘lishing zarur” degan ichki talab mujassam bo‘ladi. Mazkur inkoriy-iltijoiy ma’no qatlami Abdulla Oripovning “sen ona emassan, jallodsan, dunyo!” degan fig‘onida ifodalangan poetik munosabat bilan tipologik jihatdan uyg‘unlik kasb etadi.

Metaforaning ma’noni barqarorlashtirish, ya’ni predmet yoki holatni tavsiflovchi vazifasini bajarish tomon rivojlanishi uni, qoida tariqasida, predikatga yaqinlashtiradi. Biroq poetik tilda, unda barcha nutqiy pozitsiyalar semantik jihatdan to‘yingan va ma’noning ochiq-oydin ifodalanishi qat’iy talab etilmagan sharoitda, metafora qat’iy pozitsion cheklovlarga bo‘ysunmaydi. Shu bois, u matnga o‘zining ikkinchi darajali vazifasida, ya’ni nomlash (denominatsiya) vazifasida ham kiritilishi mumkin. Jumladan, Erkin Vohidov she’riyatidan:

Ko‘zlaring – tun, yuragimda yulduzlar yonar.

“Ko‘zlaring – tun” – nomlash vazifasidagi metaforadir (ikkinchi darajali vazifa). Biroq, agar “*Ko‘zlaring tunday qorong‘u, yuragimda yulduzlar yonar*” bo‘lsa, metafora predikativ vazifani bajarib, ma’no aniqlashardi.

Ingliz tilidan Robert Frost she’riyatidan misol:

Two roads diverged in a yellow wood,
And sorry I could not travel both
And be one traveler, long I stood
And looked down one as far as I could
To where it bent in the undergrowth;

Parchada shoir hayot yo‘llari haqida fikr yuritadi: uning oldida ikki yo‘l ko‘rinadi va ikkala yo‘lni ham bosib o‘tish imkonsizligini his qiladi. Ushbu shu’rda yo‘llar ramziy obrazlardir, ular inson hayotidagi tanlovlar va qarorlarni ifodalaydi. “Roads” so‘zi odatda geografik yo‘llarni anglatsa-da, ushbu she’rda u metafora sifatida qo‘llanilgan. Agar metafora predikativ vazifada kelganida edi, u obrazning xususiyatini tavsiflar edi, masalan: “*the winding road”, “the dark path”, “the lonely trail*” – kabi yo‘l obrazi tavsiflanangan bo‘lar edi. Zero, ushbu

[53] Miguel de Unamuno. La Oracion del Ateo. https://www.poemas-del-alma.com/la-oracion-del-ateo.htm#google_vignette

parchada “*roads*” nomlash vazifasida: u o‘zi tanlovning bir ramzi va semantik markaz sifatida kelgan. Bu holat poetikada metaforaning ikkilamchi vazifasi deb ataladi: nomlash yoki konsept belgilash orqali matnga kiritiladi, lekin unda aniq tavsiflovchi vazifa (masalan, rang, shakl, holat) yo‘q.

Ispan tilidan Federiko Garsia Lorkaning “Romancero Gitano” she’riyadan parcha[54]:

La luna vino a la Fragua
Con su polisón de nardos.
El niño la mira, mira.
El niño la está mirando.

Parchada shoir oyni (la luna) va uni tomosha qilayotgan bolani tasvirlaydi. Shu orqali u tabiat, vaqt va inson munosabatlari haqida ramziy fikrni namoyon etadi. Ushbu parchada “*La luna*” obyektni nomlaydi, konseptni belgilaydi (nomlash vazifasi).

Shunday qilib, metafora ma’noni barqarorlashtirishga yo‘nalganda odatda predikat vazifasida faollashadi. Poetik diskursda esa metafora qat’iy pozitsion cheklovlarga bog‘lanmaydi va matnga nomlash yoki tavsiflovchi vazifada kiritilishi mumkin. Shu jihatdan, metaforaning pozitsiyasi uning semantik rivojlanishi va vazifasi bilan bevosita bog‘liq.

Ramz, metaforadan farqli ravishda, o‘z ma’no belgisini barqarorlashtirgan holda, tavsiflovchi (xarakterlovchi) vazifa emas, balki deyktik (ishoraviy) vazifani bajaradi. Ramzlar predikat darajasini egallay olmaydi. Ular muayyan ma’no yoki tushunchani ko‘rsatadi, lekin uni boshqa obyektni tavsiflash uchun qo‘llamaydi. Shuningdek, ramz metaforadagidek ikki subyektlilik xususiyatiga ega emas.

Bevosita madaniy muhitning metaforik ijodkorlik rivojiga ta’sirini “Jeyn Eyr” romanidan olingan quyidagi parchada ham kuzatish mumkin:

What a smile! I remember it now, and I know that it was the effluence of fine intellect, of true courage; it lit up her marked lineaments, her thin face, her sunken grey eye, like a reflection from the aspect of an angel. Yet at that moment Helen Burns wore on her arm “the untidy badge”; scarcely an hour ago I had heard her condemned by Miss Scatcherd to a dinner of bread and water on the morrow because she had blotted an exercise in copying it out. Such is the imperfect nature of man! such spots are there on the disc of the clearest planet; and eyes like Miss Scatcherd’s can only see those minute defects, and are blind to the full brightness of the orb.

Abzasda foydalanilayotgan konseptual metaforani GOOD IS BRIGHT/ BAD IS DARK mazmunida tasavvur qilish mumkin va bunga “spot”, “defect”, “clearest”, “brightness” kabi leksemalarning hamda “She is a woman of spotless virtue”, “I don't want to hear any more of your filthy lies” kabi gaplarning qo‘llanishi ishora qiladi. Shuningdek, “minute”, “spots”, “full”, “orb” kabi iboralarning mavjudligi yana bir birlamchi metaforani (IMPORTANCE IS SIZE) faollashuvidan darak beradi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, Helen Bernning kamchiliklari yorqin yulduz sirtida ko‘rinayotgan dog‘ ramzida tasvirlanmoqda. Ko‘rsatilgan metafora qamrovida dog‘ning butun bir sayyoraga qiyoslanishi

[54] Federico Garcia Lorca. Romancero Gitano. https://www.suneo.mx/literatura/subidas/Federico

Helenning kamchiliklari uning muhim shaxs ekanligi soyasida qolib ketganday bo‘ladi.

Metafora hech qachon shaxs yoki jamiyat uchun ramzga aylanmaydi. U shaxsiy yoki ijtimoiy sohadagi ta’sirga ega emas. Ramz esa shaxsiy sohada ishtirok etadi, ammo u shaxs tomonidan yaratilmaydi. Agar obrazlar to‘plansa, ular ramzga aylanadi, rivojlanadi va kengayib boradi. “Ramz” so‘zining ishlatilishi uning inson hayotida oddiy vazifadan ko‘ra ancha ustunroq vazifa bajarayotganini ko‘rsatadi. Ramz inson hayotida ta’sirchanlik qiladi, hayotiy yo‘llar va xulq-atvor modellarini belgilaydi. Shuning uchun ham podshohlik hokimiyati ramzlari haqida gapiriladi. Shu bilan birga, inson jamoalari ijtimoiy ramzlar bilan belgilanadi, ular jamoaviy sa’y-harakatlarni birlashtirish va yo‘naltirish vazifasini bajaradi. Biroq davlat, urug‘ va millat ramzlarining ma’nolovchi talqinlari ko‘pincha noma’lum va hatto barqaror bo‘lmasligi mumkin, chunki ramzning “hokimiyatligi” uning ma’nosini birlashtiradi.

Obrazni metafora bilan solishtirishdagi yaqinlik shubhasizdir. Solishtirishda qo‘llanilgan komparativ bog‘lovchilar (masalan: “kabi” / “such as”, “like” / “como”; “dek” / “as if” / “como si”; “qatorida” / “similar to” / “similar a”) yoki predikativlar (“o‘xshash” / “similar” / “similar”; “monand” / “resembling” / “semejante a”, “eslab turadi” / “reminds of” / “recuerda a”)dan voz kechish ko‘pincha metafora yaratishning asosiy usuli sifatida qaraladi. Bu usul sintaktik tuzilmada sezilarli o‘zgarishga olib keladi. Masalan:

O‘zbekcha: “*Bu qizcha qo‘g‘irchoqqa o‘xshaydi*” – metaforani to‘g‘ridan to‘g‘ri idrok qilish uchun: “*Bu qizcha – haqiqiy qo‘g‘irchoq*”.

Inglizcha: “*This girl looks like a doll*” – metaforani to‘g‘ridan to‘g‘ri idrok qilish uchun: “*This girl is a real doll*”.

Ispancha: “*Esta niña se parece a una muñeca*” – metaforali to‘g‘ridan to‘g‘ri idrok qilish uchun: “*Esta niña es una verdadera muñeca*”.

Shu tariqa, obrazli solishtirish va metafora o‘rtasidagi formal va semantik farqlar asosan bu ikki turdagi mantiqiy munosabatlardan kelib chiqadi.

Metafora tadqiqotchilari muayyan diskurslardagi alohida metaforalar asosida olingan natijalar barcha diskurs turlaridagi metaforalar xususiyatlarini to‘liq va aniq aks ettiradi, degan xulosaga asossiz ravishda kelishdan ehtiyot bo‘lishlari lozim. Bu borada keng tarqalgan xatolardan biri metaforalarni diskursdan ajratib, ularni mustaqil, alohida birliklar sifatida tahlil qilish mumkin, degan tasavvurdir. Bunday yondashuv metaforalarni ularning amaliy qo‘llanilish muhitidan uzib qo‘yadi va ularning kognitiv hamda ijtimoiy vazifalarini to‘liq anglash imkoniyatini cheklaydi. Aslida, metaforalar tabiiy muhitda, ya’ni real kommunikativ jarayonlarda, so‘zlovchi, yozuvchi hamda nolisoniy metafora yaratuvchi subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan kognitiv va ijtimoiy faoliyat doirasida o‘rganilgandagina ularning haqiqiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Jumladan, muayyan mavzu yoki bilim sohasi bilan bog‘liq alohida diskurs yoki o‘zaro bog‘liq diskurslar majmuasini chuqur tahlil qilish hamda ushbu diskursni tuzilish jihatdan shakllantirishda ustuvor rol o‘ynaydigan metaforalarni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda muayyan so‘zlovchi yoki yozuvchilarning metaforik tafakkur usullarini taxminan izohlash, aniqlangan

metaforalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi kognitiv omillar haqida dastlabki xulosalar chiqarish mumkin[55].

Diskurs doirasida metaforani o‘rganish metaforaning kognitiv, psixologik yoki jismoniy-tajribaviy jihatlariga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun uning ijtimoiy-madaniy va diskursiv manbalarini ochib beradi. Bunda metaforalarning ma’lum darajada ijtimoiy-madaniy asoslarga ega ekanini ta’kidlash diskurs konteksti metafora ma’nosini shunchaki shakllantiradi, degan fikrni anglatmaydi; aksincha, diskurs metaforaning paydo bo‘lish manbai sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Diskurs doirasida metaforani o‘rganishning navbatdagi natijasi shundan iboratki, metaforalarni aniqlash jarayonida ularning diskursdagi o‘rni, shuningdek, mazkur diskurs va unga yaqin boshqa diskurslarda qo‘llangan metaforalar bilan o‘zaro munosabatlari hisobga olinishi lozim. Masalan, muayyan metaforik ifodalarga yoki hatto yagona konseptual metaforaga tanlab e’tibor qaratish, bunda metaforani aniqlash mezonlari, uning diskursdagi qo‘llanish chastotasi hamda matn tuzilishida qaysi joyda namoyon bo‘lishi yetarlicha ochiq bayon etilmasa, bunday yondashuv ilmiy jihatdan to‘liq deb hisoblanmasligi mumkin.

Aslida, diskurs doirasida metaforani o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun metaforani aniqlashda kompyuter lingvistikasida ilgari surilgan bir qator yondashuvlar qimmatli manba bo‘lishi mumkin. Masalan, MetaBank[56] dasturi 1990-yillar boshida tuzilgan Master Metaphor List[57] asosida metaforalar bazasiga ega bo‘lib, ma’lum konseptual metafora bilan bog‘liq so‘zlar orqali katta korpuslarda muayyan metaforani qidirish imkonini beradi. Bu jarayonda dastur avval maqsadli konseptual metafora bilan odatda bog‘liq bo‘lgan so‘zlar to‘plamini tanlaydi va ularni o‘z ichiga olgan jumlalarni topadi. Tanlangan jumlalar keyin MetaBank tomonidan tekshiriladi va ularda yoki aniq metafora ifoda etilganmi, yoki yana boshqa yangi metaforalar mavjudligini aniqlaydi. Shuningdek, MetaBank topilgan ma’lumotni kelgusidagi qidiruvlar uchun saqlaydi va muayyan konseptual metaforalar bilan aniq bog‘liq “probe words” ro‘yxatini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur UNIX asosidagi elektron pochta muloqotlari va Wall Street Journal maqolalaridagi metaforalarni tahlil qilishda qo‘llanilgan.

Bugungi kunda avtomatik metafora deteksiyasi (Automatic Metaphor Detection) kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida samarali tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. NLP sohasidagi tadqiqotlar zamonaviy korpus va modellarga asoslanib rivojlandi. VU Amsterdam Metaphor Corpus (VUAM) ingliz tili bo‘yicha keng korpus bo‘lib, so‘zlarni kontekstual ma’nosi asosida metafora yoki metafora emasligini belgilaydi. Ispan tilida esa shu yo‘nalishdagi ilk korpus CoMeta 2022-yilda yaratilgan va MIPVU metodikasi asosida faollashtirilgan. Shuningdek, parallel korpus Meta4XNLI ingliz va ispan tillarida madaniyatlararo tahlil imkonini beradi. Bu korpuslardan foydalanib, zamonaviy modellar so‘z darajasida metaforalarni aniqlaydi, ular orasida BERT,

[55] Ярощук И.А. Когнитивно-метафорическая палитра текста (на материале художественной прозы писателей Черноземья). Дисс… канд. фил. наук. – Белгород, 2013. – С. 66.

[56] Martin J.H. Metabank: A knowledge-base of metaphoric language conventions // Computational Intelligence. 1994. Vol. 10. – Pp. 134-149.

[57] Lakoff G. Multiple selves: the metaphorical models of the self-inherent our conceptual system // A conference of the Mellon colloquium on the self at the Emory cognition project. – Georgia: Emory University. 1992. – Pp. 22-31.

RoBERTa, DeBERTa va mDeBERTa kabi transformerlar keng qo‘llanadi. Ushbu modellar so‘zning kontekstli qatlamlarini tahlil qilish orqali metaforik ma’nolarni ajrata oladi va yuqori aniqlik bilan deteksiya qiladi.

Diskursda metaforani o‘rganishda ko‘tariladigan mavzulardan biri – aralash metaforalar (mixed metaphor) hisoblanadi. Ushbu tadqiqotdagi bir qator boblar diskurs tahlilida metaforalarning aralashuvini qayd etadi yoki bevosita aralash metaforalar qanday shakllanishi va qanday tushunilishini umumiy ravishda izohlashga uringan. Muloqotda yoki yozma ishda metaforik so‘zlar, iboralar va kengroq metaforik mavzular turlicha aralashib ketishi mumkin va ulardan ba’zilari kulguli ta’sir uyg‘otishi ham mumkin. Masalan, “The Times” gazetasida (12-oktyabr 1998-yil) chop etilgan va keyinchalik “The New Yorker” jurnalida “Block that Metaphor!” sarlavhasi ostida qayta nashr qilingan quyidagi iborani olish mumkin[58]:

“*As I look at it with a broad brush, there are a lot of things going south at the same time,’ said Morris Goldstein, a former International Monetary Fund official and senior fellow at the Institute for International Economics in Washington. ‘Where is the good news coming from? Is there no silver bullet out there*?”

